

4. A.V.Bitsadze, *Urvneniya matematicheskoy fiziki*. M.1976
5. Evans L.C. *Partial Differential Equations*. AMS, 2010.
6. Gilbarg D., Trudinger N. *Elliptic PDEs*. Springer.
7. Kreyszig E. *Functional Analysis*.
8. Lions J.L. *Optimal Control*.
9. Bitsadze A.V. *Equations of Mixed Type*.

Ergasheva Mukarramxon Tolibjon qizi, Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti o'zbek tili yo'nalishi IV bosqich talabasi
email:mukarramxonergasheva39@gmail.com



**ARABCHA O'ZLASHMALARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI
TAHLILI**

<https://zenodo.org/records/19827213>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilidagi arabcha o'zlashmalarning leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Arab tilidan kirib kelgan so'zlarning semantik taraqqiyoti, ma'no torayishi va kengayishi, ko'chma ma'nolarda qo'llanishi hamda uslubiy jihatdan faol yoki passiv qatlamga mansubligi masalalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: arabcha o'zlashmalar, leksik-semantik xususiyatlar, o'zbek tili leksikasi, semantik o'zgarish, ma'no torayishi, ma'no kengayishi, uslubiy qatlam, til taraqqiyoti.

ANALYSIS OF LEXICAL-SEMANTIC PROPERTIES OF ARABIC CONSONANTS

Annotation: This article analyzes the lexical-semantic characteristics of Arabic borrowings in the Uzbek language. The issues of semantic development of words imported from Arabic, narrowing and expanding their meaning, their use in portable meanings, and their belonging to the stylistically active or passive layer are covered.

Keywords: Arabic borrowings, lexical-semantic features, Uzbek lexicon, semantic change, narrowing of meaning, broadening of meaning, stylistic layer, language development.

**АНАЛИЗ ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ АРАБСКИХ
ЗАИМСТВОВАНИЙ**

Аннотация: В данной статье анализируются лексико-семантические характеристики арабских заимствований в узбекском языке. Рассматриваются вопросы семантического развития слов, заимствованных из арабского языка, сужения и расширения их значения, их использования в переносимых значениях, а также их принадлежности к стилистически активному или пассивному слою.

Ключевые слова: арабские заимствования, лексико-семантические особенности, узбекский лексикон, семантические изменения, сужение значения, расширение значения, стилистический слой, развитие языка.

Kirish.

O'zbek tili lug'at boyligining shakllanishida arab tili beqiyos o'rin tutadi. Tarixiy, madaniy va diniy aloqalar natijasida o'zbek tiliga kirib kelgan arabcha so'zlar nafaqat diniy-tasavvufiy tushunchalarni, balki ilm-fan, ma'rifat, siyosat va kundalik hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan. Bugungi kunda ushbu o'zlashmalarning leksik-semantik tabiatini, ya'ni ularning ma'no o'zgarishlarini o'rganish o'zbek tili tarixini va hozirgi holatini tushunish uchun muhim hisoblanadi. O'zbek tili tarixan boshqa tillar, ayniqsa arab tili bilan uzviy aloqada bo'lib kelgan. Bu jarayonlar natijasida o'zbek tilining lug'at boyligiga salmoqli darajada hissa qo'shdi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Arabcha o'zlashmalarning o'zbek tili leksik-semantik tizimidagi o'rnini chuqur tahlil qilish uchun, eng avvalo, ularni ifodalayotgan tushunchalari va qo'llanish sohalariga ko'ra muayyan guruhlariga ajratish maqsadga muvofiqdir. Zero, bu so'zlar shunchaki o'zlashma bo'lib qolmay, o'zbek xalqining dunyoqarashi, ma'naviyati va ijtimoiy hayotining ajralmas bo'lagiga aylangan. Quyida ushbu o'zlashmalarni eng faol leksik-semantik guruhlar kesimida ko'rib chiqamiz.

1. Diniy-tasavvufiy terminlar guruhi. Bu guruh arabcha o'zlashmalarning eng qadimiy va barqaror qatlami hisoblanadi. Islom dini qabul qilinishi bilan tilimizga kirib kelgan bu so'zlar xalqimizning e'tiqodiy qarashlarini ifodalashda asosiy vositadir. Masalan, ibodat, Jannat, iymon, zakot, munojot, vahiy. Ushbu so'zlar nafaqat diniy sohada, balki kundalik muloqotda ham ma'naviy poklik va insoniy qadriyatlarni ifodalash uchun faol qo'llanadi;

2. Ilm-fan, ma'rifat va o'quv jarayoni leksikasi. O'rta asrlarda ilm-fan tilining arab tilida bo'lganligi sababli, o'zbek tilining intellektual qatlami aynan shu o'zlashmalar hisobiga boyigan. Masalan, kitob, madaniyat, adabiyot, dars, olim, ta'lim, tahlil, tadqiqot. E'tiborli jihati shundaki, bugungi kunda ham ta'lim tizimidagi eng asosiy tushunchalar (maktab, dars, muallim..) aynan arabcha o'zlashmalardir. Bu esa ushbu qatlamning hayotiyiligini ko'rsatadi;

3. Axloqiy-etik tushunchalar va insoniy sifatlar. Arab tili o'zbek tilidagi inson fe'l-atvori va odob-axloqini ifodalovchi sinonimik qatorlarni boyitgan. Masalan, insof, diyonat, saxovat, g'ayrat, odob, himmat, shafqat, g'urur. Bu kabi so'zlar ko'pincha ijobiy konnotatsiyaga ega bo'lib, o'zbek xalqining mentalitetiga xos bo'lgan bag'rikenglik va mehmondo'stlik kabi sifatlarni ifodalashda keng qo'llaniladi;

4. Ijtimoiy-siyosiy va huquqiy leksika. Davlat boshqaruvi va huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi terminlarning katta qismi ham arabcha asosga ega. Masalan, davlat, hokimiyat, qonun, huquq, rais, adolat, jumhuriyat, vazifa. Mazkur terminlar bugungi kunda ham rasmiy-idoraviy uslubning negizini tashkil etadi. Ayniqsa, adolat va huquq kabi tushunchalar jamiyatning huquqiy ongini shakllantirishda bosh mezon bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy-siyosiy leksikadagi arabcha o'zlashmalar o'zbek tilining terminologik bazasini mustahkamlash bilan birga, rasmiy muloqot madaniyatini ham shakllantirgan

Natija va muhokama. Arabcha o'zlashma so'zlarning e'tiborga molik jihati shundaki, ularning ayrimlari o'zbek tiliga o'zlashish jarayonida dastlabki ma'nosini to'liq saqlab qolmagan. Ba'zi so'zlarning ma'nosi toraygan, ba'zilarida esa aksincha, ma'no kengaygan yoki butunlay boshqa mazmun kasb etgan. Masalan, arab tilida ayrim so'zlar bir ma'noda qo'llangan bo'lsa, o'zbek tilida ular umumiyroq yoki boshqa semantik vazifani bajarib kelmoqda. Bu holat til taraqqiyotining tabiiy jarayoni sifatida qaraladi. Bugungi kunda o'zbek tilidagi arabcha o'zlashmalarni faqat tarixiy jihatdan emas, balki ularning hozirgi ma'nosi va nutqdagi qo'llanishi nuqtai nazaridan o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu so'zlar orqali tilimizda yuz bergan semantik o'zgarishlarni, ya'ni ma'no ko'chishi, torayishi va kengayishini aniqlash mumkin bo'ladi. Mazkur holatlar tilshunoslikda leksik-semantik hodisalar sifatida izohlanadi.

Ma'no kengayishi hodisasi so'zning dastlabki ma'nosiga qo'shimcha ma'nolar yuklanishi natijasida yuzaga keladi. Arabcha o'zlashmalarning ayrimlarida aynan mana shu holat kuzatiladi. Masalan, arab tilida "ilm" so'zi asosan diniy va nazariy bilim ma'nosida qo'llanadi. O'zbek tilida esa bu so'zning ma'nosi kengayib, barcha fan turlariga, umumiy bilim tushunchasiga nisbatan ishlatiladigan bo'lgan. Natijada so'z yanada umumiy va keng semantik doiraga ega bo'lgan.

Shuningdek, "adab" so'zi arab tilida odob-axloq, tarbiya ma'nolarini bildirgan. O'zbek tilida esa ushbu so'z asosida "adabiyot" tushunchasi shakllangan bo'lib, u badiiy ijod va yozma merosni ifodalovchi keng qamrovli termin sifatida qo'llaniladi. Bu ham ma'no kengayishiga misol bo'la oladi.

"Odam" so'zi arab tilida faqat birinchi inson – Odam alayhissalomning ismi ma'nosini anglatgan. O'zbek tilida esa uning ma'nosi kengayib, yer yuzidagi barcha ongli mavjudotlarga nisbatan qo'llanadigan bo'lgan

Ma'no torayishi so'zning dastlabki umumiy ma'nosining o'zbek tilida ma'lum bir soha yoki vaziyat doirasidagina qo'llanilishi bilan bog'liqdir. Arabcha o'zlashmalarda bunday holat ko'p uchraydi. Masalan, arab tilida "farz" so'zi majburiyat, bajarilishi shart bo'lgan ish ma'nosida kengroq qo'llangan bo'lsa, o'zbek tilida esa asosan diniy amallar bilan bog'liq termin sifatida ishlatiladi. Natijada so'zning qo'llanish sohasi toraygan .

"Ojiza" so'zida ham ma'no torayishi kuzatiladi. Ya'ni arab tilidagi "ojiz" so'zi aslida "kuchsiz, qodir emas, nochor" degan keng ma'nolarni bildiradi(erkak va ayolga nisbatan ham ishlatiladi). O'zbek tilida "ojiza" shakli ko'proq ayol kishiga nisbatan, ba'zan esa himoyaga muhtoj ayol ma'nosida ishlatiladi. Umumiy ma'no(har qanday ojiz inson)faqat ayolga xos ma'noga toraygan.

Ma'no ko'chishi arabcha o'zlashmalarda keng tarqalgan hodisalardan biri bo'lib, bunda so'zning asl ma'nosi bilan o'zbek tilidagi hozirgi ma'nosi o'rtasida sezilarli farq paydo bo'ladi.

Masalan, arab tilida “odam” so‘zi ajdod, ota-bobo ma’nosini bildirgan. O‘zbek tilida esa bu so‘z “inson” ma’nosida qo‘llanilib, mutlaqo boshqa semantik vazifani bajaradi. Bu holat ma’no ko‘chishining aniq misolidir.

Shuningdek, “madaniyat” so‘zi arab tilida shahar hayoti, shaharlilik tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lgan. O‘zbek tilida esa ushbu so‘z jamiyatning ma’naviy va moddiy taraqqiyoti, urf-odatlar majmuini ifodalovchi keng ma’noga ega bo‘lgan. Natijada so‘z o‘zbek tilida yangi semantik mazmun kasb etgan.

Yuqoridagi misollar shuni kórsatadiki, arabcha ózlashmalar ózbek tilida oddiygina kóchirilgan birliklar emas, balki til tizimi va milliy tafakkur ta'sirida ma'no jihatidan qayta shakllangan leksik birliklardir. Ushbu jarayonlarni órganish ózbek tilining leksik-semantik boyligini yanada chuqurroq anglashga imkon beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, arabcha o‘zlashmalar o‘zbek tili leksik tizimining muhim va salmoqli qatlamini tashkil etadi. Ular tilimizga asosan diniy, ilmiy, madaniy va ijtimoiy aloqalar orqali kirib kelib, vaqt o‘tishi bilan leksik-semantik jihatdan rivojlangan. Tahlil jarayonida arabcha o‘zlashmalarning ma’no kengayishi, torayishi, ko‘chma ma’noda qo‘llanishi hamda ayrim hollarda asl semantikasidan uzoqlashgan holatlari aniqlab berildi. Arabcha o‘zlashmalar o‘zbek tilining boyishida, terminologik tizimining shakllanishida va milliy til taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot natijalari o‘zbek tili leksikologiyasi va til tarixi bo‘yicha olib boriladigan keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Leksikologiya. – Toshkent: Fan, 2006.
2. Hojiyev A. O‘zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
3. Madvaliyev A. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.
4. Karimov S. O‘zbek tilida arabcha o‘zlashmalar. – Toshkent: Fan, 1999.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.
6. Begmatov E. O‘zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1985.
7. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992.
8. Lapasov J. O‘zbek tilidagi arabcha o‘zlashmalarning semantic tahlili. – Toshkent; Fan, 1990.
9. Shukurova Z.Y. Aadabiyotida shakllangan bayozchilik an’anasi va uning O‘rta Osiyoga ta’siri. Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
10. Sharq va g‘arb adabiyotini tarixiy-qiyosiy o‘rganish masalalari (Ilmiy to‘plam). TSUULL kutubxonasi.

Internet resurslari

- Ziyo istagan qalblar uchun–Adabiyotlar bo‘limi – Mavzuga oid electron kitoblar va dissertatsiyalar bazasi

- Arxiv.uz-X-XII asrlar adabiyoti – Arab tili va adabiyotining mintaqaviy ta'siri haqidagi materiallar.

Aliyeva Sarvinoz Abbosjon qizi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Farg'ona davlat universiteti [ORCID ID: 0009-0003-7101-4338](https://orcid.org/0009-0003-7101-4338),
e-mail: aliyevasarvinoz789@gmail.com



**SAID AHMAD HIKOYALARIDA ANTROPONIMLARNING PRAGMATIK
TAHLILI**

<https://zenodo.org/records/19840397>

Annotatsiya. Maqolada o'zbek xalq yozuvchisi Said Ahmad hikoyalarida qo'llangan antroponimlarning pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Kirish qismida antroponim tushunchasi va uning badiiy matndagi funksional vazifalari yoritiladi. Adabiyotlar tahlili va metodologiya qismida onomastika hamda pragmalingvistika yo'nalishidagi ilmiy qarashlarga murojaat qilinadi. Tahlil va natijalar qismida yozuvchining ayrim hikoyalaridagi shaxs nomlarining xarakter yaratish, ijtimoiy muhitni ifodalash, kinoya va satirik effekt hosil qilishdagi o'rni ochib beriladi. Maqola yakunida antroponimlarning badiiy-estetik va kommunikativ vazifalari yuzasidan xulosalar beriladi.

Kalit so'z va iboralar: antroponim, pragmatika, badiiy matn, xarakter, ism semantikasi, nutq vaziyati, konnotatsiya

SAID AHMAD STORIES: PRAGMATIC ANALYSIS OF ANTHROPNYMS

Annotation: The article analyzes the pragmatic features of anthroponyms used in the stories of the Uzbek writer Said Ahmad. The introduction explains the concept of anthroponym and its functional role in literary text. The literature review and methodology refer to scientific views in onomastics and pragmalinguistics. The analysis section reveals the role of personal names in character creation, representation of social environment, irony and satirical effect. The conclusions summarize the artistic-aesthetic and communicative functions of anthroponyms in the writer's stories.

Key words: anthroponym, pragmatics, literary text, character, semantics of name, communicative situation, connotation.

**ПРАГМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ АНТРОПОНИМОВ В РАССКАЗАХ
САИДА АХМАДА**

Аннотация: В статье анализируются прагматические особенности антропонимов, использованных в рассказах узбекского народного писателя Саида Ахмада. Во введении раскрывается понятие антропонима и его функциональная роль в художественном тексте. В разделе обзора литературы и методологии рассматриваются научные взгляды в области ономастики и прагмалингвистики. В аналитической части